

Akramova Gulira’no No’monjon qizi

Guliston davlati pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillikdan keyingi davr o‘zbek hikoyachiligida milliy qadriyatlarning badiiy talqini masalasi tahlil qilinadi. Xususan, Erkin A‘zam hikoyalari misolida milliy qadriyatlarning zamonaviy inson ruhiyati, hayotiy tanlovlari va ma‘naviy izlanishlari bilan uyg‘un holda qanday ifodalanishi o‘rganiladi. Tadqiqotda “Piyoda”, “Kechikkan hayot”, “Yolg‘izlik” va “Sukut” hikoyalari adabiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik hamda struktur-semantik metodlar asosida tahlil qilinib, yozuvchining milliy qadriyatlarni tashqi urf-odatlar orqali emas, balki qahramonlarning ichki kechinmalari orqali badiiy aks ettirish uslubi yoritib beriladi. Maqolada milliy qadriyatlar statik tushuncha emas, balki zamon va jamiyat ta’sirida o‘zgarib boruvchi dinamik hodisa sifatida talqin etilishi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari yangi o‘zbek hikoyachiligida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi adabiy jarayonning muhim omillaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: yangi o‘zbek hikoyachiligi, milliy qadriyatlar, Erkin A‘zam, badiiy talqin, zamonaviy tafakkur, qahramon ruhiyati, ma‘naviy izlanish.

Abstract: This article analyzes the artistic interpretation of national values in Uzbek short stories of the post-independence period. In particular, it examines how national values are expressed in harmony with the modern individual’s psychology, life choices, and spiritual quests, using the short stories of Erkin A‘zam as examples. The study analyzes the stories “Piyoda,” “Kechikkan Hayot,” “Yolg‘izlik,” and “Sukut” through literary-analytical, comparative-typological, and structural-semantic methods, revealing the writer’s approach of depicting national values not through external customs and rituals, but through the inner experiences of his characters. The article substantiates that national values are interpreted not as static concepts, but as dynamic phenomena that transform under the influence of time and society. The findings demonstrate that the harmony between national identity and modernity is one of the key factors shaping the contemporary Uzbek short story tradition.

Keywords: modern Uzbek short stories, national values, Erkin A‘zam, artistic interpretation, modern thinking, character psychology, spiritual quest.

Аннотация: В статье анализируется художественная интерпретация национальных ценностей в узбекской новеллистике постнезависимого периода. В частности, на примере рассказов Эркина Аъзама рассматривается, каким образом национальные ценности выражаются в гармонии с психологией современного человека, его жизненными выборами и духовными поисками. В исследовании рассказы «Piyoda», «Kechikkan hayot», «Yolg‘izlik» и «Sukut» анализируются с применением литературно-аналитического, сравнительно-типологического и структурно-

семантического методов, что позволяет выявить авторский подход к изображению национальных ценностей не через внешние обычаи и ритуалы, а посредством внутренних переживаний персонажей. В статье обосновывается, что национальные ценности трактуются не как статичные понятия, а как динамичные явления, трансформирующиеся под воздействием времени и общества. Полученные результаты показывают, что гармония национальной идентичности и современности является одним из ключевых факторов формирования новой узбекской новеллистики.

Ключевые слова: *новая узбекская новеллистика, национальные ценности, Эркин Аъзам, художественная интерпретация, современное мышление, психология персонажа, духовный поиск.*

KIRISH

Mustaqillikdan keyingi davr o‘zbek adabiyotiga e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotining janrlaridan biri bo‘lmish hikoyachilik janri mazmun va shakl jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davr hikoyalarida inson va jamiyat munosabatlari, shaxsiy kechinmalar, ma’naviy izlanishlar bilan bir qatorda milliy qadriyatlar masalasi ham qamrab olingan bo‘lib, ular muhim badiiy-estetik muammo sifatida namoyon bo‘la boshladi. Ahamiyatli jihati shundaki, yangi o‘zbek hikoyachiligida milliy qadriyatlarning talqini zamonaviy tafakkur, globallashuv jarayonlari va milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq holda ifodalanmoqda.⁴

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, an’analari, axloqiy-me’yoriy qarashlari hamda dunyoqarashini ifodalovchi ma’naviy mezonlar majmuasidir. Jadal suratlarda rivojlanayotgan bugungi kunda milliy qadriyatlarni saqlab qolish juda muhim hisoblanadi, chunki qadriyatlar xalqlarning kelib chiqishidan hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan, ma’lum bir xalqni xalq sifatida saqlanib qolishiga sabab bo‘la oladigan tushunchadir. Adabiyot esa ushbu qadriyatlarni badiiy obrazlar orqali saqlash, rivojlantirish va yangi ijtimoiy sharoitlarda qayta talqin etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotning epik janri tarkibiga kiruvchi roman, qissa, hikoya, doston kabi janrlarda asar qahramonlari, ularning yashash tarzlari, boshqa qahramonlar bilan muloqati orqali milliy qadriyatlarni ko‘rsatib bera oladi. Adabiy janrlardan hikoya janri ixchamligi, hayotiyliigi va psixologik teranligi bilan milliy ruhni ifodalashda samarali janr sifatida ajralib turadi.⁵

So‘nggi yillarda yaratilgan o‘zbek hikoyalarida milliy qadriyatlar an’anaviy tasvir doirasidan chiqib, zamonaviy insonning ichki ziddiyatlari, qadriyatlar transformatsiyasi va avlodlar o‘rtasidagi tafovutlar fonida yoritilmoqda. Misol uchun Isajon Sultonning “Alpomishning qaytishi” hikoyasida muallif milliy epos qahramoni – Alpomish timsolini

1. ⁵ To‘raqulov U. *O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan, 2012.

2. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

zamonaviy makon va tafakkur bilan bog'laydi. Hikoyada an'anaviy qahramonlik, vatan, sadoqat kabi milliy qadriyatlar hozirgi zamon insoning ichki bo'shligi va ma'naviy inqirozi bilan birgalikda talqin etiladi. Qahramon obrazi orqali avlodlar o'rtasidagi uzulish, qadriyatlarning transformatsiyasi va zamonaviy hayot talablari bilan milliy o'zlik o'rtasidagi ziddiyat ochib beriladi.⁶

Mazkur maqolaning maqsadi yangi o'zbek hikoyachiligida milliy qadriyatlarning aks etish shakllari, badiiy funksiyasi va g'oyaviy-estetik ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida hikoyalardagi milliy qadriyatlar obrazlar tizimi, syujet-kompozitsion qurilish va muallif pozitsiyasi orqali ochib beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida adabiy-tahliliy, qiyosiy-tipologik, tarixiy-madaniy hamda hermenevtik metodlar qo'llaniladi. O'zbek hikoyachiligi vakili bo'lmish Erkin A'zam ijodida milliy qadriyatlar badiiy talqini va ushbu qadriyatlarning zamonaviy inson tafakkuri bilan uyg'unlashuvi masalasi ko'rib chiqiladi. Yozuvchining tanlangan hikoyalari milliy qadriyatlarning saqlanib kelayotgan va yangicha talqin etilishi, qahramonlarning o'y-kechinmalari, avlodlararo munosabatlar va zamonaviy hayotda qadriyatlarning o'zgarish jarayoni masalasini yoritish nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinadi. Asarlardagi obrazlar tizimi, syujet qurilishi struktur-semantik tahlil metodi asosida o'rganiladi.

Shu bilan birgalikda, tadqiqotda zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining nazariy qarashlari va milliy qadriyatlariga oid ilmiy manbalarga tayangan holda umumlashtirish va xulosalash metodlaridan foydalaniladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalarini shuni ko'rsatadiki, “Piyoda”, “Kechikkan hayot”, “Yolg'izlik” va “Sukut” kabi Erkin A'zamning asarlari o'rganib chiqildi va tahlil qilindi. Ushbu hikoyalar orqali yozuvchining qay tarzda milliy qadriyatlarni o'z asarlarida badiiy ifodalashi va yetakchi tendensiyalari aniqlandi.

Erkin A'zam hikoyalarida milliy qadriyatlarni ifodalashda tashqi belgilar marosimlar orqali emas, balki qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari va hayotiy turmush-tarzi orqali ifodalanadi. Misol uchun, Erkin A'zamning “Piyoda” hikoyasida milliy qadriyatlar, ya'ni urf-odatlar yoki, sabr-toqat va kamtarlik kabi qadriyatlar bosh qahramonning oddiy hayot tarzi va ichki kechinmalari fonida namoyon bo'ladi. Yozuvchi qahramonlarning milliy qadriyatlarni qay tarzda ulug'lashini ma'lum bir urf-odatlar orqali emas, oddiygina ularning kundalik hayoti orqali ko'rsatib beradi. Yangi o'zbek hikoyachiligidagi bu uslub esa, o'quvchilarni diqqatini o'ziga jalb etish orqali, asrlar davomida saqlanib kelayotgan milliy qadriyatlarni saqlanib qolishiga yordam berib kelmoqda.

“Kechikkan hayot” hikoyasida esa milliy qadriyatlarning vaqt va zamon bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlari o'rganilib chiqilgan. Ushbu hikoyada qahramonning o'tmish va bugun o'rtasidagi ichki kechinmalari, o'tmish pushaymonlari va ma'naviy izlanishlari orqali vijdon, mas'uliyat va o'zlikni anglash kabi qadriyatlar yaqqol tarzda ochib berilgan.

3. ⁶ Sulton I. “Alpomishning qaytishi”. – *Sharq yulduzi* jurnali, 2000-yillar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur hikoyada milliy qadriyatlar inqirozi qahramonlarning ichki kechinmalari orqali tasvirlab berilgan.

Erkin A‘zamning boshqa bir hikoyasi, “Yolg‘izlik” hikoyasida Erkin A‘zam milliy qadriyatlarning individual ruhiy kechinmalar bilan ham uzviy bog‘liqligini mahorat bilan ko‘rsatib beradi. Hikoyada qahramonning yolg‘izlik hissi shunchaki bir insoniyatga tegishli kechinma sifatida emas, balki jamiyatdagi ma‘naviy uzilishlar bilan qahramonlarning kechinmalari uyg‘un holda tasvirlangan bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat va ma‘naviy yaqinlikning zaiflashuvi jamiyatdagi mortliklarga sabab bo‘luvchi bir omil sifatida bayon etilgan.

Tadqiqot davomida “Sukut” hikoyasida milliy qadriyatlar qahramonlarning o‘zaro suhbat, fikrlar almashinuvi tarzida emas, ichki monolog va ramziy detallar orqali ifodalanganligi aniqlandi. Yozuvchining mahorati orqali qahramonning sukuti tashqi loqaydlik emas, balki chuqur ichki kechinmalar, aytilmagan dard va ma‘naviy qarama-qarshiliklarning badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.⁷

Erkin A‘zam hikoyalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, yozuvchi milliy qadriyatlarni statik tushuncha sifatida emas, balki zamonaviy jamiyat sharoitida o‘zgarib boruvchi, shaxsiy taqdir orqali namoyon bo‘ladigan dinamik hodisa sifatida tasvirlaydi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi o‘zbek hikoyachiligida, milliy qadriyatlar masalasi an‘anaviy talqindan farqli ravishda zamonaviy badiiy tafakkur asosida yoritilayotganini ko‘rsatdi. Milliy qadriyatlarni asarlarda ifodalash esa tashqi belgilar ya‘ni ma‘lum bir urf-odatlar bilan emas asar qahramonlarining ichki olami, his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq ravishda bayon etiladi.⁵

Xususan, Erkin A‘zam hikoyalarida milliy qadriyatlarning qahramon ruhiyati orqali berilishi asarning shunchaki hikoya qilinib berishi emas, balki o‘quvchi o‘ziga qandaydir bir saboq chiqarishiga undaydi. Bu uslubiyat esa yozuvchining qalami naqadar o‘tkirligini zamonaviy hikoyachilik tamoyillariga tayangan holda milliylikni badiiy-estetik hodisa darajasiga ko‘targanini ko‘rsatish orqali isbotlaydi. Masalan, “Piyoda” va “Sukut” hikoyalarida qahramonning ichki kechinmalari, sukut va oddiy hayotiy vaziyatlar milliy axloqiy mezonlarning badiiy ifodasiga xizmat qilgan.

Tadqiqotda aniqlanganidek, Erkin A‘zam hikoyalarida milliy qadriyatlar ko‘pincha inqirozli yoki tanazzulga uchragan holda tasvirlanadi. Buning ortida esa milliylikning asli holatida ko‘rinishi ya‘ni ideallikdan qochish va real hayotdagi ziddiyatlarni ochiq holda ko‘rsatib berish yotadi. “Kechikkan hayot” hikoyasida vijdon va mas‘uliyat masalalarining kechikkan anglanishi milliy qadriyatlarning zamon bilan bog‘liq transformatsiyasini ifodalaydi.

Shu bilan birgalikda, “Yolg‘izlik” hikoyasida aks ettirilgan ma‘naviy uzilishlar bir inson uchun emas, balki zamonaviy jamiyatda insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning susayishi bilan bog‘liq holda talqin etilishi mumkinligi bayon etilgan. Bu holat yangi o‘zbek

4. 4 Yo‘ldoshev Q. *Badiiy tahlil asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009.

hikoyachiligida milliy qadriyatlarning individual shaxs muammolari orqali umumlashtirilayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, Erkin A‘zam hikoyalarida milliy qadriyatlar zamonaviy insonning ichki ziddiyatlari, hayotiy tanlovlari va ma‘naviy izlanishlari bilan uyg‘un holda yoritilgan bo‘lib, bu holat yangi o‘zbek hikoyachiligida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta‘minlagan muhim omillardan biri ekanligini ko‘rsatib beradi.

XULOSA

Yangi o‘zbek hikoyachiligi, xususan, Erkin A‘zam ijodi misolida olib borilgan ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, mustaqillikdan keyingi davr hikoyalarida milliy qadriyatlar an‘anaviy, tashqi belgilar orqali emas, balki insonning ichki ruhiy kechinmalari, hayotiy tanlovlari va ma‘naviy izlanishlari orqali ifodalanmoqda. Bu holat milliylikning zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashgan holda yangicha talqin etilayotganini anglatadi.

Erkin A‘zam hikoyalarida milliy qadriyatlar statik tushuncha sifatida emas, balki zamon va jamiyat ta‘sirida o‘zgarib boruvchi, shaxs taqdiri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan dinamik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. “Piyoda”, “Kechikkan hayot”, “Yolg‘izlik” va “Sukut” kabi hikoyalarda vijdon, sabr-toqat, mas‘uliyat, mehr-oqibat, o‘zlikni anglash kabi qadriyatlar qahramonlarning ichki dunyosi orqali ochib beriladi. Bu asarlarda milliylik ko‘pincha inqiroz, kechikish yoki ma‘naviy uzilish holatida tasvirlanadi, bu esa real hayotdagi ziddiyatlarni badiiy haqiqat sifatida aks ettirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, yangi o‘zbek hikoyachiligida milliy qadriyatlar individual shaxs muammolari orqali umumlashtiriladi va zamonaviy insonning ruhiy kechinmalari bilan uyg‘un holda talqin etiladi. Bu esa o‘quvchini faqat voqeani kuzatuvchi emas, balki asar mazmuni ustida mushohada yurituvchi, o‘z hayotiga nisbatan xulosa chiqaruvchi shaxsga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin A‘zam hikoyalarida milliy qadriyatlarning zamonaviy ruhda talqin etilishi yangi o‘zbek hikoyachiligida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta‘minlagan muhim omillardan biri bo‘lib, bu jarayon milliy adabiyotimizning badiiy-estetik imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkin A‘zam. “Piyoda”, “Kechikkan hayot”, “Yolg‘izlik”, “Sukut” hikoyalari. – Turli to‘plamlardan.
2. Erkin A‘zam. *Tanlangan asarlar*. – Toshkent: Sharq, 2015.
3. Karimov I.A. *Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
4. Normatov U. *Zamonaviy o‘zbek adabiyoti jarayonlari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
5. Qo‘shjonov M. *Hozirgi o‘zbek adabiyoti masalalari*. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Rasulov A. *Badiiy tafakkur va adabiy jarayon*. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Sulton I. “Alpomishning qaytishi”. – *Sharq yulduzi* jurnali, 2000-yillar.

25-Yanvar, 2026-yil

8. To‘raqulov U. *O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan, 2012.
9. Xudoyberganov B. *Milliy qadriyatlar va zamonaviy adabiyot*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016.
10. Yo‘ldoshev Q. *Badiiy tahlil asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2009.